

MEYJI DAVRIDAGI ADABIY O'ZGARISHLAR

Egamova Kamola Akmal qizi

TDSHU Yaponshunoslik oliy maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: 1868-yil Meyji inqilobidan so'ng, yangidan barpo etilgan jamiyatda zamonaviy iqtisodning o'sishi, insonlarning demokratik huquq va erkinliklari muammolari, jamiyatda erkak va ayollarning teng huquqli bo'lishi kabi masalalar o'z yechimini topa boshladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, aynan Meyji davriga kelib yapon adabiyotida bu davrga qadar ommalashmagan janrlar yuksala bordi.

Kalit so'zlar: Meyji, "Meirokusha", "siyosiy roman", "shajitsushugi"

Yaponiya o'zining sharqona ko'hna tarixi, yuksak madaniyati va ma'naviy boyliklari bilan jahon adabiyoti xazinasiga salmoqli hissa qo'shgan davlatlar sirasiga kiradi. Kunchiqar mamlakat ming yildan ziyod tarixiga ega bo'lgan boy adabiyotini yaratgan. Yapon mumtoz adabiyoti bo'l mish bu ma'naviy xazinalar ko'lam jihatidan ham, mavzu va g'oyaviy yo'naliish nuqtai nazaridan, janrlari va badiiyligi tomonidan ham nihoyatda rang-barangdir. Ana shu beba xozinaning katta qismini nasriy asarlar tashkil qiladi. Bunday nasriy asarlar nafaqat Yaponianing, balki jahon adabiyoti madaniyati o'chog'ining ham nodir namunalaridan hisoblanadi. Bu namunalar ayniqsa, XIX-XX asrlarda jahon adabiyotiga yuz tutgan.

Meyji davri 1868-yilda Yaponiyada muttasil 250 yillik hukmronlik qilib kelgan Tokugava syogunatining ag'darilishi bilan boshlanib, 1912-yilda imperator Meyjining vafoti bilan yakun topdi. Tokugava syogunati hukmronligi davrida Yaponiya tashqi dunyodan ajralgan, tashqi olamda jadal sodir bo'layotgan o'zgarishlardan ayrılgan, konfutsian jamiyatli mutloq feudal mamlakat edi. Savdo sohasini kengaytirishni istayotgan rivojlangan mamlakatlar manfaatini bundan buyon hisobga olmaslikning iloji yo'qligi natijasida, 1853-yilda AQShning Harbiy-dengiz boshlig'i Mettyu Perri o'zining "qora kemalari" (yaponiyaliklar g'arb kemalarini shunday atashar edi) bilan Ura bandargohiga kelib, yapon hukumatiga ultimatum topshirdi. Shundan so'ng sodir bo'lgan ichki to'ntarish yangi hukumatning shakllanishiga olib kelib, g'arb madaniyati va texnologiyalarining Yaponiyaga jadal kirib kelishi boshlandi.

So'nggi qirq yil ichida mamlakat juda o'zgarib ketdi. Bugungi kunda Meyji davri mamlakatning tubdan transformatsiyalanishi sinonimi bo'lib, u Yaponiyani biz bugun bilgan Yaponiya darajasiga olib kelgan o'zgarishlarning uzoq jarayonini boshlab berdi.

1868-yil Meyji inqilobidan so'ng murakkab siyosiy jarayon boshlandi. Bu jarayon esa mamlakatni tez sur'atda "yevropalashtirish", mamlakatda jamiyatni tubdan yangi siyosiy va iqtisodiy tomonidan isloh qilish bilan belgilandi. Davlatni "yevropalashtirish" uchun birinchi navbatda adabiyotni izchil rivojlantirish kerakligiga e'tibor qaratilib, adabiyotda publistik janrda ijod qilish, shuningdek, ma'rifatni targ'ib qilish yo'nga qo'yildi.¹³

¹³ Пинус Е.М. Краткая история литературы Японии. Курс лекций. -Л.: Лен., 1975. Стр 50

70-yillar ma'rifatparvarlik harakatining gullagan davri bo'ldi. Ma'rifatparvarlar ma'rifat tizimi haqidagi yangi qonunni (1872) hayotga tadbiq etish maqsadida ma'ruzalar o'tkazish, ma'rifiy targ'ibot markazlari bo'lmish jamiyatlar tashkil etish kabi katta hajmdagi ishlarni amalga oshirdilar. Ana shunday jamiyatlar orasida eng nufuzlisi "Meirokusha" bo'lib, u o'z davrining eng o'qimishli insonlari hisoblangan ensiklopedist Nishi Amane, tarjimon Nakamura Keyu, professor Tsuda Mamichi, "G'arbdagi holat", "Bilimga chorlash", "Sivilizatsiyaning qisqa ocherki" kabi ma'rifatga oid kitoblar muallifi Fukudzava Yukichilarni birlashtirgan edi. Ular yaponlarning dunyoqarishini kengaytirishga katta hissa qo'shganlar.

Shuningdek, bu davrga kelib Yaponiyada tarjima adabiyotlar ham keng tarqaldi. Ular orasida Bulver Litton, Dizraeli, G'arb fanining haqiqiy yutuqlari haqidagi hikoyalar sifatida yanglish qabul qilingan Jyul Vern, real voqealar deb hisoblangan A. Dyuma va V. Skottning romanlari mashhur edi. 80-yillarda, rus adabiyotidan birinchi tarjimalar paydo bo'lib, ular yapon adabiyotida alohida rol o'ynagan.

Ma'rifatparvarlik davrining yana bir yutiqlaridan biri jurnalistikaning rivojlanishi bo'ldi. O'sha davrda "Seiyo" ("G'arb"), "Shinjuku geshshi" ("Shinjuku maktabining oylik jurnali") kabi jurnallarning maqsadi ma'rifatga yo'naltirish bo'lsa, "Meiroku zashshi" ("Meyji davri 6-yili jurnali") jurnali ijtimoi-siyosiy yo'nalishdagi ilk katta jurnal sifatida qayd etiladi. Matbuot rivojlanishining yangi bosqichi 70-yillar o'rtasida ommalashgan "xalq xuquqlari va mustaqilligi uchun kurashish harakatlari" bilan boshlandi. Jurnalistika tobora ijtimoiy-siyosiy yo'nalishda faoliyat olib bordi.¹⁴

Biroq ijtimoiy harakat keng tarqalgan davrda, jamiyatning jangovar, siyosiy o'tkir so'zga bo'lган ehtiyojlarini tarjima adabiyoti ham, jurnalistika ham to'liq qondira olmadi. Bu o'z o'rnida siyosiy adabiyotning rivojlanishiga olib keldi.

80-yillar boshida Yaponiyada "siyosiy roman" (seiji shosetsu) paydo bo'lib, u o'z ichiga roman, tarixiy asarlar, siyosiy-ma'rifiy asarlarni qamrab olgan. Ilk yapon "siyosiy roman" 1880-yilda Toda Kiyado tomonidan yozilib, "Tuyg'ular dengizidagi bo'ron. Xalq huquqlari haqidagi qissa" deb nomlangan. Siyosiy romanning ommalashishiga professional adabiyotshunoslar emas, "xalq xuquqlari va mustaqilligi uchun kurashish harakatlari" qatnashchilari sabab bo'ldilar. Siyosatchi Yano Ryukeyning "Davlat boshqaruvi haqidagi go'zal qissa" (1883) asari qadimgi Gretsiya tarixi materialiga asoslanib yozilgan va unda kichik mamlakatning mustaqillik uchun bo'lgan kurashi tasvirlangan bo'lib, xalq bu asarni juda yaxshi qabul qildi.

"Siyosiy roman" adabiyot sohasining kengayishiga va adabiyotni hayotga yaqinlashishiga yordam bergan bo'lsada, badiiy qiymat jihatidan asl san'at asarlariga aylanmadilar.

1885-yili Tokio universiteti talabalari Yaponiyada ilk marta adabiy hamjamiyat tashkil etib, "Kenyusha" ("Mo'yqalam do'stlar jamjamiyati") deb nom berdilar. Bu hamjamiyat a'zolari "siyosiy roman"ning oddiy va jo'n uslubiga qarshi chiqdilar. Ular o'z asarlari qahramonlari sifatida uzoq o'tmish, asosan, feodal Yaponiya insonlarini tanlab, Ixara Saykaku kabi o'rta asrlar mumtoz adabiyoti vakillari ijodiga murojaat qilar edilar. Ana

¹⁴ Конрад Н.И. Очерки японской литературы. – М.: Художественная литература, 1973.

shu hamjamiyat vakillari orasida Odzaki Koyo, Koda Roxanning asarlari xalq orasida mashhur bo‘ldi.

80-yillar oxirlariga kelib adabiyotni yanada hayotga yaqinlashtirish tarafdarlari orta bordi. Mahhur adabiyotshunos, ingliz adabiyoti mutaxassis Tsubouchi Shoyo (1859-1935) o‘zining ‘Roman mohiyati’ asarida an'anaviy yapon poetikasini rad etib, tasvirlashda Yevropa usulidan foydalanishni taklif qildi. U adabiyot ixlosmandlarini g‘arb romanining uslub va yo‘nalishlari bilan tanishtirdi.¹⁵ Tsubouchi Shoyo bu uslubni “shajitsushugi” (“boricha tasvirlash”) deb atadi. “Shajitsushugi” tasvirning aniqligiga urg‘u berar va asar markaziga inson tuyg‘ularini qo‘yar edi.

Shu zaylda yapon adabiyoti yevropa adabiyotining yangi uslublarni tahlil qilgan va qo‘llagan holda o‘zgara bordi. Ammo yapon adabiyoti G‘arbiy Yevropa adabiyoti kabi rivojlanish yo‘lini bosib o‘tmagani sababli yapon yozuvchilarini G‘arbning xorijiy adabiyotlarini maqsadli idrok etishga hali yetarli darajada tayyor emas edilar. Shunga qaramay, yapon adabiyoti namoyondalari yangi uslublarni qo‘llashdan, real hayotni adabiyotga olib kirishdan, yangi zamon adabiyotining vazifalarini o‘rganishdan to‘xtamadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –T.: Akademnashr, 2010. –210 b.
2. Конрад И. И. Японская литература в образцах и очерках. – Л., 1927. 553с
3. Конрад Н.И. Очерки японской литературы. – М.: Художественная литература, 1973. – 466 с.
4. Григорьева Т. П. К вопросу о развитии теории реализма в японской литературе // Японская литература. М.: Исследования и материалы, 1959. 147 с.
5. Григорьева Т. П. Японская литература XX века. М.: Художественная литература, 1983. 416 с.
6. Григорьева Т. П. Японская художественная традиция. М.: Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», Институт востоковедения Академии наук СССР, 1979. 368 с
7. Пинус Е.М. Краткая история литературы Японии. Курс лекций. -Л.: Лен., 1975. Стр 120

¹⁵ Григорьева Т. П. К вопросу о развитии теории реализма в японской литературе // Японская литература. М.: Исследования и материалы, 1959. Стр 67.